



ADVOKATLIK FIRMASI VA ADVOKATLIK HAY'ATINI FARQLI JIHATLARI VA XORIJIY TAJRIBA

Toshkent viloyati yuridik
texnikumi o'quvchisi
Koymanov Samandar
Abdug'ofur o'g'li

Annotatsiya: ushbu maqolada advokatlik faoliyati, advokatlik firmasi va advokatlik hay'atining o'zaro farqli jihatlari, fadvokaturaning jamiyatimizdagi o'rni va advokat faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari yoritiladi.

Kalit so'zlar: advokatura, advokatlik firmasi, advokatlik hay'ati, sheriklik shartnomasi, advokatlik tuzilmasi, advokatlik litsenziyasi.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risidagi" qonuniga binonan Respublikamizda advokatlik faoliyatining quyidagi shakllari faoliyat olib bormoqda:

- Advokatlik hay'ati;
- Advokatlik firmasi;
- Advokatlik byurosi;
- Yuridik maslaxathonalar.

Har bir advokatlik litsenziyasini qo'lga kiritgan advokat yuqoridagi tashkiliy tuzilmalardan birida faoliyat olib borishi shart. Advokatlik tuzilmalari bir-biridan farq qiladi. Advokatlik byurosi, firmasi va hay'ati yuridik shaxs maqomiga ega bo'lsa, yuridik maslaxathonalar davlat ro'yxatidan o'tishi lozim.

Qonunchiligimizda advokatlik tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, isloh qilish, tuzilmalar uchun qulay imkoniyatlar yaratish, ularning faoliyat olib borishlari uchun yanada erkinliklar berish, faoliyatiga aralashishga, to'sqinlik qilishga hech qanday o'rin qoldirmaslik huquqiy yordam ko'rsatish masalalarini yuksak marralarga yetkazish uchun rivojlangan mamlakatlar advokaturasi qonunchiligidagi tajribalardan kelib chiqib, Prezidentimizning 2018-yil 22-maydagi 5441-sonli "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda ta'kidlanganidek, advokatura institutining samaradorligini oshirish borasida juda katta ishlar olib borilayotgani bu sohaga bo'lgan talab va taklifning hamda bu sohaning o'rni nihoyatda muhimligidan darak beradi. Bu borada Advokatlik faoliyatining tashkiliy tuzilmalari ham o'z o'rniga ega. Ushbu farmon asosida advokatlik tuzilmalari faoliyati ko'rib chiqilib bir qator o'zgarishlar, yengilliklar yaratildi. Advokatlik byurosi uchun noturar joydan emas turar joydan ham foydalanishga ruhsat berildi, advokatlik faoliyatini litsenziyalash ixtisoslashtirildi.

Bugun advokatlik tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlariga, to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ularning yagona qo'shtirnoq ostida "qolib" shaklida qotib qolganligini, hamda bu shakl ancha eskirganligi va bir qator



kamchiliklarni keltirib chiqishi haqida soʻz yuritmoqchimiz. Yagona shakl – qolib deganda advokatlik tuzilmalarida qatʼiy belgilab qoʻyilgan advokatlar soniga eʼtibor qaratmoqchiman.

Sheriklik shartnomasi tugatilganidan keyin advokatlar yangi sheriklik shartnomasini tuzishlari shart. Agar yangi sheriklik shartnomasi avvalgi sheriklik shartnomasining amal qilishi tugatilgan kundan eʼtiboran bir oy ichida tuzilmasa, advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga oʻzgartirilishi yoki tugatilishi kerak. Sheriklik shartnomasi tugatilgan paytdan eʼtiboran va advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga oʻzgartirilguniga qadar yoxud yangi sheriklik shartnomasi tuzilguniga qadar advokatlar yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida bitimlar tuzishga haqli emas. Qonunchiligimiz bu qoida boʻyicha advokatlarning soni jihatdan ham ushbu normani qoʻllashni nazarda tutmoqda. Advokatlar hayʼati – aʼzolikka asoslangan va advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun taʼsis etilgan, notijorat tashkilot shaklidagi advokatlik tuzilmasidir [1]. Advokatlar hayʼatidagi aʼzolar soni oʻn nafardan kam boʻlmasligi lozim.

Advokatlar hayʼati taʼsis shartnomalari muassislar tomonidan tasdiqlanuvchi nizom va ular oʻrtasida tuziladigan taʼsis shartnomasi sanaladi. Taʼsis shartnomasida muassislar advokatlar hayʼatiga oʻz mulklarini oʻtkazish shartlarini, uning faoliyatida qatnashish tartibini, advokatlar hayʼatiga yangi aʼzolar qabul qilish, uning tarkibidan muassislar chiqishi tartibi va shartlarini, shuningdek advokatlar hayʼati muassislarining huquqlari va majburiyatlarini belgilaydilar.

Advokatlik firmasi aʼzolari soni 2 nafardan boshlab 10 nafardan koʻp boʻlmasligi lozim. Hayʼatda esa aʼzolar soni yuqorida taʼkidlaganimiz 10 nafardan kam boʻlmasligi lozim. Byuroda esa advokatlar soni bir nafardan ortiq boʻlishi mumkin emas.

Advokatlik faoliyati tashkiliy tuzilmalarini son jihatdan cheklab qoʻyishning kamchiliklariga toʻxtaladigan boʻlsak, bu birinchi navbatda advokatlarning erkin faoliyat olib borishlariga bir qator qiyinchiliklar tugʻdiradi. Masalan, yuqorida taʼkidlaganimiz, advokatlik firmasida sheriklik shartnomasi tugatilganidan keyin advokatlar yangi sheriklik shartnomasini tuzishlari shart. Agar yangi sheriklik shartnomasi avvalgi sheriklik shartnomasining amal qilishi tugatilgan kundan eʼtiboran bir oy ichida tuzilmasa, advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga oʻzgartirilishi yoki tugatilishi kerak. Sheriklik shartnomasi tugatilgan paytdan eʼtiboran va advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga oʻzgartirilguniga qadar yoxud yangi sheriklik shartnomasi tuzilguniga qadar advokatlar yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida bitimlar tuzishga haqli emas. Bundan kelib chiqadiki, agar advokatlik firmasida advokatlarning soni 2 nafardan iborat boʻlsa, ularning biri turli sabablarga koʻra, advokatlik maqomini yoʻqotsa, yoki faoliyat bilan shugʻillanishga imkoni boʻlmay qolsa, (turli nohush holatlarda, baxtsiz hodisalar tufayli) qonunchilikka binoan bir nafar advokat bir oy ichida yangi sherik topishi yoki, faoliyat turini oʻzgartirishi lozim, aks holda yuridik yordam koʻrsatish toʻgʻrisida bitim tuza olmasligi belgilangan. Bizningcha bu advokatlarning erkin faoliyat olib borish prinsiplariga zid.



Chunki, bir oy ichida advokat yuridik yordam bilan emas o'ziga sherik qidirish bilan, yoki faoliyat turini o'zgartirish bilan band bo'ladi. Undan oldin tuzilgan yuridik yordam ko'rsatish to'grisidagi bitim masalalari ochiq qoladi, ishni oxirigacha yetkaza olamaslik havfi tug'iladi. Yoki bo'lmasam, advokatlik firmasida advokatlar sonining 10 nafardan oshiq bo'lmasligi borasidagi cheklovlar, ya'ni muayyan firmada advokatlik stajirovkasini o'tayotgan, 11-advokat advokatlik litsenziyasini qo'lga kiritgandan so'ng, o'zi faoliyat olib borgan firmada faoliyat olib bora olmay qoladi, vaholanki bu advokat bor ishchanlik qobiliyatini aynan ushbu firmaga bag'ishlamoqchi.

Advokatlik hay'atiga to'xtaladigan bo'lsak, hay'at a'zolari soni 10 nafardan kam bo'lmasligini qonunchiligimiz taqazo etmoqda. Lekin muayyan advokatlik hay'ati 10 nafar advokat bilan faoliyat olib borayotgan bo'lsa, advokatlardan biri advokatlik maqomini yo'qotsa, yoki boshqa faoliyat turiga o'tib ketsa, advokatlik hay'ati, belgilangan muddatda o'ziga yangi advokat qidirishiga, yoki bo'lmasam faoliyat turini o'zgartirishiga majbur bo'ladi. Fikrimizcha, bu me'zonlar natijasida advokatlik faoliyati tashkiliy tuzilmalarini bir-birdan ajratish o'rinli bo'lmaydi. Bu borada bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini keltirib o'tmoqchiman.

"Rossiya Federatsiyasida advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi Federal qonunning 22- moddasiga binoan ikki yoki undan ortiq advokat advokatlik kollegiyasini tuzish huquqiga ega. Advokatlar kollegiyasida muassislar orasida kamida besh yil davomida advokatlik tajribasi bilan kamida ikki advokatlar bo'lishi kerak. Ushbu qonunga binona advokatlik firmasi a'zolarining soni cheklanmagan, faqatgina eng kam miqdori belgilangan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ham advokatlik firmasida ishlovchi advokatlarning soni cheklanmagan. Statistik ma'lumotalarga binoan hozirgi kunda AQSHda advokatlarning 50% dan ortiqrog'i xususiy amaliyot bilan shug'illanuvchi byuro va firmalarning advokatlari hisoblanadi. AQSHda advokatlar soni 250 tagacha bo'lgan firmalarda ish unumdorligi juda yuqori hisoblanadi [2]. Yuqoridagilardan kelib chiqib advokatlik firmlarida a'zolar sonining eng kam miqdori belgilanib, qolgan cheklovlar, ya'ni eng ko'p miqdori chegaralanmasligi lozim, advokatlik hay'atlarida esa eng kam miqdori ham (10 nafar) chegaralanmasligi lozim. Ikkala tuzilmalarning farqini advokatlarning soni jihatdan ajratish maqsadga muvofiq emas deb hisoblayman, bu farqni ularning tashkiliy-huquqiy maqomi, nomi, haq to'lanish tartibi, soliq va boshqa masalalardan, xususiy institut sifatidagi nuqtayi nazridan farqlash masalalarini o'ylab ko'rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Advokatura to'g'risida"gi O'RQ-349-I-son 1996-yil 27-dekabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018 y., 03/18/497/2044-son. <http://www.lex.uz>
2. Salomov B. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar): Yurid. fan. d-ri. Dis. – T., – 2005. – B. 292.